



Makedoniyalik Aleksandrning hokimiyatga kelishi va uning harbiy yurishlari

Bexruz Xudayberganov

Urganch davlat universiteti “Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar” fakulteti 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Makedonskiy hokimiyat tepasiga kelishi, uning Yunoniston va butun sharqqa qilgan yurishlari, Aleksandrning egallagan hududlarda olib borgan siyosati, unga qarshilik qilgan Oʻrta Osiyoning kichik davlatlarning birlashuv jarayonlari haqida turli xil manbalarda qanday tarif berilganligini bilib olish mumkin boʻladi.

Kalit soʻzlar: Kvint Kursiy Ruf, Aleksandr, fors podshosi Doro III, Oʻrta Osiyo, Spitamen, Baqtriya, Soʻgʻdiyona.

Аннотация: В этой статье можно будет узнать, как Александр Македонский пришел к власти, его походы в Грецию и на весь Восток, политику Александра на оккупированных территориях, а также процессы объединения противостоявших ему малых государств Средней Азии.

Ключевые слова: Квинт Курций Руф, Александр, Малая Азия, персидский царь Дарий III, Средняя Азия, Спитамен, Бактрия, Согдиана, Индия.



Abstract: In this article, it will be possible to find out how Alexander of Macedon came to power, his campaigns in Greece and the whole east, Alexander's policy in the occupied territories, and the processes of unification of the small states of Central Asia that opposed him.

Key words: Quintus Curcius Rufus, Alexander, Asia Minor, Darius III of Persia, Central Asia, Spitamen, Bactria, Sogdiana, India.

Aleksandr haqida qadimgi tarixchi olimlar Kvint Kursiy Ruf, Arrian, Aristotel, Onesikrit, Kallirim va Xareslar o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning "Aleksandr Makedoniskiy tarixi" asarida asosan O'rta Osiyoning eramizdan avvalgi IV-II asrlarga oid voqealar tasvirlangan bo'lib, hatto bu asar Plutarxning "Aleksandr" romanidan ham ustun hisoblanadi¹. Kursiy Ruf bu asarni yozishda, Aleksandrning O'rta Osiyo mamlakatlari bo'ylab yurishi yozib borilgan "Shoh jurnali" va "Efemerida" bilan ham tanishib chiqadi. Undan tashqari Ptolomey va Aristobulning "Kundalik"larini ham sinchkovlik bilan o'rganib chiqadi². Kursiy Ruf Aleksandr tarixini o'rganishga juda katta qiziqish bildiradi va Aleksandrga atab o'nta asar yozadi. Rim tarixchisi Arrianning (mil.avv.90/95-175 yillarda) "Aleksandr anabasisi" asari ham Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari va shu hududlar haqida juda ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Kvint Kursiy Ruf va Arrianning asarlarini tarjima qilishda juda katta yordam bergan (asosan rus tiliga) M.E.Sergeyenko va V.S.Sokolovlarning xizmati katta³. Makedoniyalik Aleksandr miloddan avvalgi 356-yilda Makedoniyani shu paytdagi poytaxti hisoblangan Pella (qadimgi yunoncha nomi Lila) shahrida dunyoga keladi. Aleksandrning

¹ Boynazarov F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma, Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 46-47

² Boynazarov F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 44-45

³ Sagdullayev A. S. "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma. Toshkent. "Donishmand Ziyosi". 2021-yil. B 190-191



laqabi “Fihellin” (yunonlarning do‘sti) hisoblangan. Uning bobosi Amintas III bo‘lgan, otasi Filipp II (mil.avv.382-336) va onasi esa Piridlar sulolasidan bo‘lgan qirol Neoptolem I ning qizi Epirus malikasi Olimpiada edi. Filipp II va Aleksandr asosan Argead sulolasiga mansub bo‘lib qadimgi yozuvchilar bu sulolani yana Geraklidlar sulolasi deb ham atashgan⁴. Aleksandr Aflotunning shogirdi, buyuk Afina faylasufi Arastu tomonidan tarbiyalangan. Aleksandr Arastudan bir umrlik Gomerga muhabbatni va afsonaviy ajdodlari Axill va Geraklning qahramonliklariga tenglashish yoki ulardan o‘tib ketish maqsadini oldi. Arastu yana unga falsafa, ritorika, geometriya, tibbiyot, geografiya sohalarini ham o‘rgatdi. Filip II Aleksandrga yosh paytidan davlatni boshqarish va jangchilik san‘atini o‘rgatadi. Hatto Filipp II mil.avv.338-yilda Beotiya yaqinidagi Xeroniya shahri yaqinida yunonlarga qarshi bo‘lgan jangda Aleksandrni qo‘shining bir qismiga qo‘mondon qilib qo‘yadi. Aleksandr, otasi urushda bo‘lgan payti yoki poytaxtdan uzoqda bo‘lgan paytlari davlatni boshqarish va poytaxtga kelgan elchilarni kutib olish sa‘natini o‘rgangan.

Filipp II Yunonistonning Propontis shahrini qamal qilishga ketgandan foydalangan Frakiya qozg‘olon ko‘taradi. Aleksandr va otasining sarkardalaridan biri bo‘lgan Parmenion bilan shu qo‘zg‘olonni bostirishga erishadi. Mil.avv. 343-342 yillarda Filipp o‘z o‘glini bir nechta yaqin insonlari bilan Miesa shahriga jo‘natadi⁵. Filipp II mil.avv.336-yilda Kichik Osiyoga yurishini rejalashtirayotgan paytida Pellada shahrida o‘z xizmatkori tomonidan o‘ldiriladi. Shu paytda Makedoniyaning hududi Dunay daryosidan to markaziy Yunonistongacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olgan. Shu davlatga 20-yoshli Aleksandr taxtga o‘tiradi. Dastlab unga Yunonistondagi shaharlar undan keyin esa Makedoniyaning shimoliy qismi bo‘ysunmay boshladi. Shu paytda Aleksandrga Filipp II ning eng yaqin sarkardalaridan biri Antipeyter o‘z qo‘shinlari bilan yordam bera boshladi. Dastlab ular Yunonistondagi Afina va Fivaga yurish qilishadi. Yunonistondan qaytgandan so‘ng esa

⁴ [Александр Македонский — Википедия](#)

⁵ [Александр Македонский — Википедия](#)



Makedoniyaning shimoliy qismidagi Tirakiya va Illiriyaga qarshi mil.avv.335-yil bahorida yurish boshlashadi. Bu yurish Dunabe daryosining shimoliy qismigacha davom etdi. Shu hududdagi Triballi qabilasi Aleksandrdan omonlik so‘rashadi, qolgan Tirakiya qabilasi esa Geta va Danube daryolari oralig‘idagi hududda qolishadi⁶. Shu yurishlardan so‘ng Aleksandr mil.avv.334-yilda sharqqa harbiy yurishlarini boshlaydi. Bu yurishlar o‘n yil davom qiladi va shu yurishlari natijasida Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron (330-yil), Hindiston (327-yil) kabi katta-katta hududlarni bosib oladi. Natijada Aleksandr butun dunyoga mashhur sarkarda va podsho bo‘lib taniladi, sharqda esa uni Iskandar nomi bilan atay boshlaydilar. 334-yil Aleksandr Eronga yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo‘lib, uning o‘limi tufayli to‘xtab qolgandi. Aleksandr qo‘shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolemey Lag va boshqalar, shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 ta kema bo‘lgan⁷.

O‘rta Osiyoni istilo qilinishi. (mil.avv.330-327-yil) - Aleksandrning O‘rta Osiyoni istilo qilishini biz ko‘proq Kvint Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asaridan bilib olishimiz mumkin. Aleksandr endi o‘z yurishlarini Hindistonga qaratadi, lekin undan oldin u orqa tomonini xavsizlantirishi uchun Oks (Amudaryoni) narigi tarafida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishi kerak edi. Bu paytda Doro ham Baqtriyaga, hozirgi Afg‘oniston hududiga qochgan edi. Mil.avv 330-yilda Baqtriya satrapi Bess Doroni qo‘lga olib o‘ldiradi va o‘zi Artakserks IV nomi bilan Fors taxtiga o‘tirdi. Aleksandrning strategiyasi aqilli va foydali edi. Aleksandr endi o‘z tarafiga qolgan Ahamoniylar oilasi va Fors zodagonlarini o‘ziga og‘dirib oladi. Natijada Aleksandr Bessni har tomonlama siqib qo‘yadi va Baqtriyaga qarshi yurish qiladi. Baqtriyaning yirik qal‘alari Aorn va Baqtrani qo‘lga

⁶ Urakov D. “Jahon tarix” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Innovatsiya-Ziyo”. 2020-yil. B 199-200

⁷ [Aleksandr - Vikipediya](#)



kiritadi. Aorn qal'asiga Androkolning o'g'li Arxelayni qo'mondon qilib qo'yadi. Qolgan hududlarga esa Artabozni qo'mondon qilib tayinladi⁸.

Mil.avv.329-yilda Bess Aleksandrga taslim bo'ladi va uni sud hukmiga ko'ra qatl qilishadi. Aleksandrning ustozi Aristotel "Oksdan Kir II va Doro I kechib o'tgan va mufaqqiysizlikka uchragan, shuning uchun yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishini" aytadi⁹. Aleksandr mil.avv. 329-yilda Oks daryosini kechib o'tadi va kichik Branxidlar shaharchasiga yetib keladi. Kursiy Ruf bu shahar aholisi haqida alohida to'xtalib o'tgan. Eron shohi Kserks greklar bilan bo'lgan jangda, ularning bir qismini asir olib, So'g'diyona cho'llariga surgun qiladi. Bugun bu branxidlar Aleksandrni o'zlariga yaqin qabiladoshlaridek qarshi oladilar¹⁰. Endi uning oldida Nautaka(Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va Marokanda(Samarqand) shaharlari turardi. Shu yilning o'zida maydoni 70 stadiy bo'lgan Marokanda shahrini egallaydi. U yerga Artabozni hokim qilib qo'yadi¹¹. Shundan so'ng, Aleksandr qo'shinining bir qismini shu yerda qoldirib, o'zi esa Kurushkat (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun Sirdaryo qirg'oqlari sari yurdi. Aleksandrni shu shaharga yurish qilishi, qadimgi Eron shohi Kir II ning haqiqatdan ham O'rta Osiyoga yurish qilganidan dalolat beradi. Kursiy Rufning aytishicha, Eron shohi Kir mil.avv.559-529-yillarda yashab o'tib, Yaksart (Sirdaryo) bo'yidagi G'aza shahrini egallab oladi va shu yerda Kurushkat (Kiropolis) shahriga asos soladi. Aleksandr dastlab G'aza shahriga 50 nafar odamini yuboradi, shahar aholisi dastlab ularni yaxshi kutib olishadi, kech tushganda esa ularni hammasini o'ldirishadi. Shulardan bilib olishimiz mumkunki, qadimdan Yaksart daryosi bo'yida yashagan xalqlar jasur va mard bo'lib, bosqinchilarga qarshi juda shavqatsiz kurash olib borganlar. Aleksandr endi So'g'diyonaga qarab yurishini davom

⁸Sagduleyev. A.S. "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma, - Toshkent. "Donishmand Ziyosi". 2021-yil. B 191.

⁹Sagduleyev. A.S. Kostetskiy.V.A. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. "Yangiyo'l Poligraf Servis". - Toshkent. 2013-yil. B. 125.

¹⁰Boynazarov. F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. - Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 48.

¹¹Sagduleyev. A.S. "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma. - Toshkent. "Donishmand Ziyosi". 2021-yil. B 197.



qildiradi. Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asarida keltirilishicha, Aleksandr So‘g‘diyona yerlariga qo‘shni bo‘lgan Girkaniyaga katta qo‘shin bilan bostirib kiradi.

“...Atrof qumlik, sahro, quyosh qizdiradi. Suv tanqis edi. Qumlik xuddi olov purkayotgandek”¹². Asarda keltirilgan ushbu jumlar yozuvchi Oks daryosidan narigi tomonidagi qumliklarni nazarda tutgan. Bu issiqqa chiday olmay askarlar eng oxirgi tomchi vinolarini, hatto moylarigacha ichib qo‘yganligini aytadi. Aleksandr O‘rta Osiyoni istilo qilish paytida unga qarshi bir nechta qo‘zg‘olonlar va miliy ozodlik harakatlari boshlandi. Ulardan biri Spitamen boshchiligidagi xalq harakati edi. Aleksandr Spitamenga dastlab katta-katta va‘dalar hamda So‘g‘diyona hokimligini berishini aytadi, ammo Spitamen unga rozi bo‘lmaydi. Unga qarshi Aleksandr dastlab sarkarda Menedem boshchiligida 3000 nafar askarni yuboradi, o‘zi esa Tanais daryosi bo‘ylab ketadi. Ammo Spitamen unga qarshi Poliment (Zarafshon) daryosi bo‘yida pistirma qo‘yadi va makedonlar pistirmaga tushadi. Bu jangda makedonlarning 2000 nafar piyoda askarlari va 300 ta otliq askar halok bo‘ladi. Aleksandr esa bundan xabar topib, asosiy qo‘shinga Kraterni qo‘mondon qilib, Spitamenga qarshi kurashish uchun Marokandaga yo‘l oladi. Uch kun davomida 1500 stadiy masofani bosib o‘tdi¹³. Bundan xabar topgan Spitamen esa Baqtra tomon qochadi. Aleksandr qishni o‘tkazish uchun esa Zariaspga keladi. Shu yerda uning oldiga 1500 suvoriylar qo‘mondoni, xorasmiylar podshosi Farasman yetib keladi. U Aleksandrga, o‘ziga qo‘shni bo‘lgan Kolxlar va Amazonka qabilalarni va Eviksin dengizidagi qabilalarga qarshi kurashda yordam berishini aytadi. Aleksandr esa unga minnatdorchilik bildirib, hali Pont dengizi tomonga yurish qilish niyati yo‘qligini aytadi. Uni Baqtriya satrapi Artaboz huzuriga yuboradi va shundan vataniga qaytadi¹⁴. Shundan so‘ng Aleksandr o‘z yurishini

¹²Boynazarov. F. “Qadimgi dunyo tarixi” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent. “Iqtisod-moliya”. 2006-yil. B. 47.

¹³Sagduullayev. A. S. “O‘zbekiston tarixi” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent. “Donishmand Ziyosi”. 2021-yil. B. 193.

¹⁴Sagduullayev. A. S. “O‘zbekiston tarixi” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent. “Donishmand Ziyosi”. 2021-yil. B. 194.



So'g'diyonaga qaratadi. Kursiy Ruf o'zining kitobida So'g'diyona hududi 80 stadiyni tashkil qilishi va uning katta qismi cho'ldan iboratligi aytib o'tgan.

Aynan shu kitobda massagetlarning ham jasurligiga alohida to'xtalib o'tgan. "Massagetlarning 800 nafar otliq jangchisi o'rmonga joylashib olishadi va qolgani esa makedoniya sarkardasi Attin yonidan qo'ylar podasini o'rmonga qarab haydab o'tishadi. Sarkarda 300 nafar askari bilan qo'ylar podasi ortidan o'rmonga borishadi va ular tuzoqqa tushishadi"¹⁵. Aleksandr keyinchalik Baqtradan Maroqanda shahriga qaytadi va u yerning hokimi Artabozni vazifasidan ozod qilib Klit idorasiga topshiradi. Huddi shu Klit Granik jangida Aleksandrni o'limdan qutqarib qolgandi. Aleksandr Spitamenni topish uchun Marokanda va Quyi Zarafshon oralig'idagi 120 ming aholini qirib tashlaydi¹⁶. Mil.avv 328-yil kuzida Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Spitamen bu jangda mag'lub bo'lib saklar bilan cho'lga chekinadi va shu yerda o'z xotini tomonidan o'ldiriladi. Aleksandr So'g'd zodagonlari – Xoriyen va Oksiartning Hisor tog'idagi qa'lalarini qo'lga kiritadi va mil.avv. 327-yilda obro'li So'g'd zodagoni Oksiartning qizi Roksanaga uylanadi.

Natijada qo'shinda norozilik kayfiyati boshlanadi. Mil.avv.330-yilda Parmenionning o'g'li Filotas va Antipatarning o'g'li Linkestislar boshlashadi, lekin ularni o'ldirishadi. Shundan so'ng Aleksandr bilan Klit o'rtasida janjal chiqadi. Aleksandr o'z qilichi bilan Klitga tashlanmoqchi bo'lgan paytda Ptolomey bilan Pedrik uni to'xtatib qolishadi, ammo Aleksandr birozdan so'ng baribir Klitni o'ldiradi¹⁷. Ayrim manbalarda bu voqea hozirgi Samarqand shahrida bo'lgan deyiladi¹⁸. Aleksandr Osiyoni bosib olish uchun salkam 3-yil

¹⁵Boynazarov. F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 58.

¹⁶ Sagdullayev. A.S, Kostetskiy. V. A . "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. "Yangiyo'l Poligraf Servis". – Toshkent. 2013-yil. B 126.

¹⁷ Boynazarov . F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent, "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 59.

¹⁸ [Aleksandr - Vikipediya](#)



(mil.avv.330-327-yillar) sarfladi va shu yillar natijasida Marg'iyona, Baqtriya So'g'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand orasidagi Sirdaryo bo'ylarini egalladi. Ammo Toshkent vohasi, Xorazm va Farg'ona mustaqilligicha qoldi. Aleksandr har bir yurishidan so'ng qo'shinining safini to'ldirish uchun So'g'diyona va Baqtriya yoshlaridan foydalandi. Haqiqatdan ham, Aleksandr O'rta Osiyo hududida bir nechta shaharlar qurdiradi, asosan Baqtriya va So'g'diyona hududlarida 8 ta shaharga asos solgan. Ulardan Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg'iyona Aleksandriya va boshqalari. Dastlab Aleksandriya Esxata shahri Tanais daryosi bo'yida qurilgan deb taxmin qilingandi. Ammo, atoqli olim Bobojon G'afurov Aleksandriya Esxata shahri Tanais daryosi bo'yida emas, Yaksart (Sirdaryo) daryosi bo'yida qurilganligini ta'kidlaydi. Unga Aleksandriya deb nom beradi. Shahar juda qisqa vaqt ichida tiklangan. Bor yo'g'i o'n yetti kunda qurib bitkazilgan¹⁹. Olimlarning ta'kidlashicha, bu shahar hozirgi Xo'jand shahri o'rnida qurilgan. Professor M. M. Lyutovning ta'kidlashicha, Aleksandriya shahri hozirgi Xo'jandning aynan o'rnida emas, Sirdaryoning Bekobodga yaqin joyda qurilgan. Rus olimi M. M. Lyutovning fikricha, Aleksandr Osiyodan shu qadar behisob boyliklarni Makedoniyaga jo'natgan, masalan birgina Suza ibodatxonasidan qimmatbaho tillalar, mo'ynali buyumlar va boshqa boyliklar bilan birga 50000 talant tilla o'lja olinganligini aytadi, u boylikni yuklash uchun esa 10000 juft qo'tos va 3000 tuya kerak bo'lgan²⁰.

Mil.avv 323-yil bahorida Bobil shahrida Aleksandr Makedonskiy o'zi bosib olgan davlatlardan kelgan delegatsiyalarni qabul qildi. Jumladan, yunonlarning ham maxsus delegatsiyalari kelgan edi. Aleksandr marosim davomida kelgusi rejasi Arabistonni bosib olishi kerakligini aytdi. Lekin, hech qancha vaqt o'tmay mash'um voqea sodir bo'ldi. Mil.avv 323-yil 29-may kuni bo'lgan bazmda Aleksandr Makedonskiy o'z askarlari tomonidan zaharlandi. Ikki haftalik og'ir betoblikdan so'ng, mil.avv 323-yil 10-iyun kuni

¹⁹ Boynazarov . F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 51.

²⁰ Boynazarov . F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil. B. 13.



Aleksandr vafot etdi²¹. Bobilda vafot etgan paytida Aleksandr Makedonskiy hali o‘ttiz uch yoshga ham to‘lmagan edi. Aleksandr o‘limidan so‘ng u tuzgan davlat yaqin sarkardalari tomonidan 3 qismga bo‘linib ketdi- Makedoniya, Misr va Suriya davlatlari.

Xulosa: Aleksandr Makedonskiy o‘z davriga yarasha qudratli davlat tuza olgan yosh hukmdor hisoblanadi. U yoshlik chog‘laridan mashhur olimlardan nafaqat nazariy balki amaliy bilimlarni ham o‘rganadi. Undan tashqari Aleksandr otasi tomonidan mubolag‘a bo‘lmaydi. Buyuk Aleksandr strategik mahorat va mustahkam iroda bilan ajralib turadigan tarixiy shaxs edi. Mahoratli qo‘mondon o‘z hayotini fathga bag‘ishlagan. U ulkan davlat tuzdi va u yerdagi xalqlarni birlashtirdi. Hukmronligi davrida o‘zgacha bir madaniyat shakllandi. Aleksandr Sharqqa qilgan 10 yillik yurushi natijasida ko‘plab hududlarni bosib olib yunon madaniyatini olib kelgan. Natijada yunon madaniyati bilan Sharq madaniyati qorishmasi Ellinizm vujudga keladi. Yunonlar ham o‘z navbatida sharqning juda ko‘p madaniy yutuqlarini qabul qilganlar. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Aleksandr Makedoniskiyning harbiy yurishlari muvaffaqiyatli tomonlari ham bor. Aleksandr yurushlarini o‘rganish tarixni umumlashtirishga, aniqlashtirishga xizmat qiladi. Aleksandr shaxsini o‘rganish orqali biz tarixni yortishda muhim manbaga ega bo‘lamiz. Yurishlarini o‘rgangan olimlar uning bosib olgan hududlari to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishga harakat qilishgan yoki yozma va moddiy topilma manbalar orqali uni to‘ldirganlar. Bugungi kunda ham Aleksandr tuzgan davlat va olib borgan yurishlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ishlari ko‘plab davlat tarixchilari va olimlari tomonidan olib borilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boynazarov. F. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2006-yil
2. Sagdullayev. A.S. "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Donishmand Ziyosi". 2021-yil
3. Urakov D. "Jahon tarix" o'quv qo'llanma. – Toshkent. "Innovatsiya-Ziyo". 2020-yil
4. Sagdullayev. A.S., Kostetskiy. V. A. "Qadimgi dunyo tarixi" o'quv qo'llanma. "Yangiyo'1 Poligraf Servis". – Toshkent. 2013-yil.
5. Aleksandr - Vikipediya
6. Александр Македонский — Википедия
7. Alexander the Great | Biography, Empire, Death, & Facts | Britannica